

DEMORATIK QADRIYATLARNI SOTSIALIZATSIYA QILISH VA INSONNING AJRALMAS HUQUQLARI

Mo'minjonov Oyatbek Sobirjonovich

Farg'ona Davlat Universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs

oyatbeksobirjonovich1@gmail.com

+998507012507

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19693724>

Kirish

Ushbu maqolada davlatlarda qay darajada inson huquqlari himoyasiga e'tibor qaratilganligi, uning buzilishiga, chetlab o'tilishiga yo'l qo'yilmasligi kabi vositalarni tahlil qilinadi. Shuningdek, uning fuqarolar hayotida qanday muhim ahamiyatga egaligi va davlat hokimiyati tomonidan ta'minlanishi kerak bo'lgan fuqarolarning huquq va erkinliklari va buning ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lgan omil ko'rsatib o'tiladi. Inson huquqlari tarixan olib qaraganda, qadimda paydo bo'lgan va davlatlar orasida shakllanib borgan. Buning sababi shuki, fuqarolarning shu huquqlarga ehtiyoj sezishi, davlat va jamiyat hayotida alohida o'rin tutganligi va davlatlar shu asnoda o'z fuqarolarning xavfsizligi, huquqlari va ularining burch va majburiyatlarini shu orqali belgilab qo'ygan. Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmas-da hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib, u dunyoning ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Demokratiya-xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslangan murakkab va jonli siyosiy tizimdir. Uning nomi grekcha demos (xalq) va kratos (hokimiyat) so'zlaridan kelib chiqqan. Demokratiya mukammal tizim emas (Vinston Cherrchill aytganidek, u " boshqa barcha tizimlarni hisobga olmaganda, boshqaruvning eng yomon shakli "). Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo'ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqliligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishidir. Demokratiya, mohiyatan, insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hamdir. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda demokratiya jamiyatning yashash tarziga aylanib qolgan.

Asosiy tushunchalar

Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson

huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.

Inson huquqlari masalasi davlatning nafaqat ichki masalasi, balki xalqaro ahamiyatga ham egadir. Inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar, ular tomonidan qabul qilingan hujjatlar alohida rol o'ynaydi. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlovchi milliy huquq tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida o'rin tutadi.

Konstitutsiyada inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari mustahkamlanadi, ularni ta'minlash yo'llari belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar).

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og'ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25-26-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega (27-29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasa-da hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar “ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga “ asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib, u dunyoning ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Inson huquqlari-bu normativ me'yorlardan tuzilgan va shaxsning huquq va erkinligini ifodalovchi, uning turmush sharoitida jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan munosabatlarini belgilab beruvchi tushunchadir.

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka

implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeyi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Albatta inson va unga tegishli bo'lgan huquqlar haqida gap borar ekan buning muhofazasi asnosida yuqorida keltirgan deklaratsiyamiz turadi. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak insonning o'z manfaati yo'lida qilingan ko'plab kurashlari asta-sekin o'z natijalarini bera boshlagan va quyidagilar bularning realligini tasdiqlaydi:

- Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil);
- Huquq to'g'risidagi pepitsiya (1628-yil);
- “Habeas Corpus AKT ” (1679-yil);
- Huquqlar to'g'risidagi bill (1689-yil)
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789-yil)

Ikkinchi jahon urushi davrida va undan oldingi ayrim davlatlar tomonidan. San-Fransisko konferensiyasida irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni targ'ib qilishga imkon yaratgan bu vahshiyliklar dunyo fikri muhitini yaratdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustunlari va tashkilotning belgilangan maqsadi inson huquqlari to'g'risida qabul qilingan xalqaro hujjatlarni qabul qishga asos bo'ldi.

Xalqaro maydonda insonning huquqlari yuqoridagi hujjatlar bilan kafolatlanib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida esa konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi ya'ni asosiy qonun manbaimizning asosiy qismini inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari qismi aynan mana shu huquqlarning muhofazasi uchun asosini tashkil etadi.

Ushbu amalga oshirgan tadqiqotlarimiz tarixiy metodga asoslangan ya'ni yaqin tarixda insonning shaxsiy, iqtisodiy, protsessual, ijtimoiy va boshqa huquqlarini amalga oshirish uchun poydevor bo'lgan asosan AQSh davlatining shtatlarida yuz bergan insonning o'z huquqlarini amalga oshirish uchun, to'liq ta'minlashga qaratilgan harakatlari zoye ketmaganligini anglab yetdik. Masalan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan aktlar shular jumlasiga kiradi. Jahonda mashhur insonning protsessual huquqlarini amalga oshirish uchun “Miranda” va “Habea Corpus” deb ataluvchi qoidalar yaratilgan.

“Miranda” qoidasi haqida o'rganganimizda u dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarida yuzaga kelgan bo'lib, Arizonada istiqomat qilgan Ernest Arturo Miranda jinoyat sodir etib o'z aybiga iqrorlik sabab sud uni hibsga oladi va Mirandaning 73 yoshli advokati Alvin Mur bu inson huquqlariga zid ya'ni shaxs ushlar chog'ida unga sukut saqlash huquqidan foydalana

olishi tushuntirilishi lozimligi haqida o'rganadi. 1966-yilda Miranda va AQSh Oliy sudi bilan bo'lgan jarayonda Oliy sud Mirandani oqlaydi va u ozodlikka chiqariladi. Ushbu voqeadan so'ng butun dunyo bo'ylab ushbu qoida davlatlar ichki qonunchiligida insonlarning protsessual huquqlaridan foydalanishning tajribasini qo'llay boshlashdi. Endi "Habeas Korpus" haqida gapiradigan bo'lsak

ushbu atama lotin tilidan orlingan bo'lib "tanani shaxsni (sudga) keltirish degan ma'noni anglatadi.

U jinoiy ta'qibga uchruwagan har qanday insonning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi hisoblanib, u 1679-yil 26-may kuni ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan akt ya'ni qoida bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQSH va Yevropa davlatlarida inson huquqlari bizdan oldinroq va mukammalroq shaklda rivojlanib kelmoqda. Bizda esa shu kabi darajalarga yetib va jahon tajribalarini o'z siyosiy tizimimizda va fuqarolar huquqlarida namoyon etmoqdamiz.

Demokratik qadriyatlarni sotsializatsiya qilish, ya'ni demokratik sotsializm — bu siyosiy falsafaga aloqador g'oya bo'lib, unga ko'ra davlat iqtisodiyotida siyosiy demokratiyani qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy demokratiya, ishchilar demokratiyasi va ishchilarning o'zini o'zi boshqarishiga alohida e'tibor beradi. Bu sotsialistik oqimlar yig'indisi bo'lib, unda eng katta tenglik mavjud bo'lgan va adolat hukm suradigan sotsialistik jamiyatni qurish demokratik tamoyillarni hurmat qilishga mos keladi, degan g'oya faol ravishda ilgari suriladi.

Bu mafkura tarafdorlari ishlab chiqarish vositalariga davlat mulkini nazoratini, siyosiy demokratiyani qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblaydi. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan demosotsializm tarafdorlarining qarashlari aralash iqtisodni qo'llab-quvvatlashdan tortib, barcha ishlab chiqarish vositalarini mehnat jamoalari o'rtasida taqsimlangan mulkka o'tkazishgacha belgilaydi.

Demokratiyaning keng tarqalgan modellaridan biri sotsial demokratiyadir. O'zbekistonda siyosatshunoslikka doir ilmiy adabiyotlarda sotsialistik demokratiya, jamoaviy

demokratiya, identitar demokratiya shaklida ham uchratish mumkin. Faqat sotsial demokratiyaning rivojlanish asoslari marksistiksotsialistik g'oyalarga borib taqalsada, u tarixiy rivojlanishi davrida mohiyatan o'zgargan. Uni sobiq Ittifoq yoki shu kabi davlatlardagi sotsialistik demokratiya modeli bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Sotsial demokratiyaga sof jamoaviy yoki sotsialistik demokratiya deb qarasaq, unda muxolifat yot tushuncha hisoblanadi, xususiy mulk huquqi cheklanadi, ko'ppartiyaviylik masalasi ham ochiq qoladi, o'zini xalq bilan bir narsa sifatida ko'rsatuvchi totalitar rejim shakllanishi va insonlar huquqlari cheklanishi xavfi bor. Sotsial demokratiyaning asosiy g'oyalari- adolat, tenglik, erkinlik va birodarlik. Shuning uchun bugungi kunda sotsial demokratiyani mohiyatan ijtimoiy demokratiya sifatida tushunish maqsadga muvofiq sanaladi.

Demokratiya (qadimgi yunoncha: δημοκρατία — „xalq hokimiyati“) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo'ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

Bundan kelib chiqadiki, jahon mamlakatlarida demokratiya qanchalik rivojlansa, davlat va fuqarolar o'rtasida munosabatlar yaxshilanadi, noroziliklar va xalq to'ntarishlari umuman

bo'lmaydi,shu bilan birga davlat rahbarlarining dunyo miqyosidagi nufuzi ancha oshadi.Bularning barchasi demokratiya va inson huquqlari ta'minlangan davlatlarda ro'y beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://library-tsul.uz/davlat-va-huquq-nazariyasi-saydullayev-sh-2024/>
2. <https://library-tsul.uz/>
3. <https://lex.uz/docs/-4872355>
4. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/47684>